

## **ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMIARI ORQALI SOLIQ QARZDORIIGINI UNDIRISH MEXANIZMINING TAKOMILLASHTIRISH.**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi*

***Yuldashev Dilshod Rustamovich***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va ta'limni yaxshilash, soliq tizimi va tartiblarini soddallashtirish, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rjasida samarali aloqa kanallarini rivojlantirish soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish. Bundan tashqari, adolatga bo'lgan ishonch va idrokni shakllantirish va samarali majburlov choralarini qo'llash ham muvofiqlikni oshirishi munosabatlarni rivojlantirish tendentsiyalarini hamda soliq va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorliklar yuzaga kelishining asosiy sabablarini nazariy va amaliy jihatlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq qarzi, boqimanda, kadastr qiymati, shaxsiy kartochka, soliq elementlari, budget salohiyati, mahalliy budget, mahalliy budgetlar xarajatlari, sud ijrosi, qarz beruvchi, kreditor, debtor.

**Kirish:** Davlatimizning hozirgi kundagi tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab quvvatlash hamda ular faoliyatini erkinlashtirish jarayonida turli tekshirishlarni kamaytirish, soliqlar va yig'implarning ular faoliyatiga ta'sirini kamaytirish, ya'ni mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har qanday xo'jalik sub'ekti to'layotgan solig'i unga to'la-to'kis iqtisodiy erkinligini ta'minlashga asos bo'lishiga ershishi bugungi kundagi soliqqa tortish tamoyillarining eng asosiysi ekani hech kimga sir emas. Mustaqillikka erishgan daslabki yillarimizdanoq, qarzdorlikning, ayniqsa, soliq qarzdorlikning o'sishini oldini olishga katta ahamiyat berilmoqda. Qarz beruvchi va qarz oluvchilar, kreditor va debtorlar o'rjasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi. Ko'rيلayotgan qatiy chora-tadbirlar tufayli, soliq idoralarining budgetga va

budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalariga soliq summalarini undirishdagi faolligi muayyan ijobiy natijalar bermokda.

Soliq majburiyatlarini takomillashtirish va zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish orqali soliq qarzlarini undirish mexanizmini rivojlantirish, soliq yig'ish jarayonlarining samarali va shaffofligini ta'minlashda muhim qadamdir. Ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirish kabi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, soliq organlarining no'muvofiqliklarini aniqlash, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni aniqlash va muddati o'tgan soliq to'lovlarini yig'ishni soddalashtirish imkoniyatlarini oshiradi. Zamonaviy axborot tizimlari soliq organlariga katta hajmdagi ma'lumotlarni markazlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi, bu ularga mos kelmaslik shakllarini aniqlash va yuqori xavfli soliq to'lovchilarni yanada samarali yo'naltirish imkonini beradi.

Bashoratli tahlil usullaridan foydalanish orqali soliq organlari soliq to'lovchilarining potensial bo'yin tovlashlarini aniqlash, tergov ishlarini birinchi o'rinda ko'rish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, raqamli platformalar soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlariga rioya qilish jarayonini osonlashtirishi mumkin.

Soliq qarzdorligini zamonaviy axborot tizimlari orqali undirish mexanizmini takomillashtirishda asosan quyidagilarga e'tibor berish kerak. Bunda, asosan, Soliq qarzi yuzaga kelgandan keyin 3 ish kunida qarzdorga talabnama yuboriladi. Talabnama bilan xabardor qilingan holda 3 ish kunida qarzdorning bank hisob varag'iga farmoyish yuboriladi hamda barcha hisobvaraqlardagi mablag'lar 30 kunga muzlatiladi. Agar farmoyish bo'yicha soliq to'lovchining e'tirozi bo'lmasa, 30 kundan keyin muzlatilgan summalar budjetga o'tkaziladi. Farmoyish yuborilgandan 30 kun muddat ichida qarzdor to'lov topshiriqnomaga bilan to'loymi amalga oshirishi yoki farmoyishni bekor qilish bo'yicha sudga shikoyat berishi mumkin.

Farmoyishni ijro qilish yoki bekor qilish yuzasidan sud qarori chiqariladi va farmoyish ijrosi sud qarori asosida amalga oshiriladi. Farmoyish

yuborilgandan 30 kun o'tib, tan olingan soliq qarzi bo'yicha soliq organi qarzdorning mol-mulkini xatlaydi. Tan olingan qarz bo'yicha farmoyish yuborilgandan so'ng 60 kundan keyin ham qarzdorlik qisqarmasa, soliq organi qaror chiqarib mol-mulkdan undirish yuzasidan majburiy ijro byurosiga qaror yuboradi. Qarzdorning hisobvarag'i bo'lmasa va talabnoma yuborilgandan keyin 30 kun muddat ichida e'tiroz bildirilsa, soliq organi sudga da'vo ariza bilan murojaat qiladi.

Soliq organining da'vo arizasi sud tomonidan ko'rib chiqilib, hal qiluv qarori chiqariladi va 1 oydan keyin ijro varaqasi chiqarilib majburiy ijro byurosiga yuboriladi.

Respublikamizning soliq mexanizmi ikki muhim vazifani bajaradi: bir tomonidan, davlat byudjetini zarur daromadlar bilan ta'minlash, ikkinchi tomonidan esa soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun soliq tizimida iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, soliqning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish va ularning byudjet tizimiga barqaror kirishini ta'minlash zarur. Buning uchun soliqni undirish usullarini takomillashtirish, soliq undirishni optimallashtirish, soliq qarzini kamaytirish va soliq yukini yengillashtirish choralarini ko'rishi lozim.

Soliq tizimidagi isloxotlar mamlakatimizda soliq ma'murchiligining takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq majburiyatları davlat byudjetiga soliq va majburiy to'lovlarini undirish, shuningdek, ularning to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishga qaratilgan soliq qonunchiligiga muvofiq bo'lishi zarur. Buning natijasida, soliq to'lovchilar bilan davlat soliq xizmati organlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar shakllanadi.

Soliq qarzini kamaytirish uchun, soliq majburiyatlarini o'z muddatida va to'liq undirishda soliq majburiyatlarini takomillashtirishni o'rganish zarur. Bu esa quyidagi masalalar bilan bog'liq:

1. Soliq hisobotlari shakllari takomillashmaganligi va xisobotlarni to‘liq avtomatlashmaganligi.

2. Soliq qarzini o‘sish tendensiyasini mavjudligi.

3. Soliq qonunchiligini takomillashtirish zaruriyatining mavjudligi.

jaxon miqyosida to‘plangan boy tajribalardan samarali foydalanish borasida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan foydalanish o‘ta muhim ahamityaga ega”<sup>1</sup> degan fikrni bildirgan. Chet el davlatlarida soliqni to‘lash, soliqni undirish usullarini o‘rganish va bu orqali soliq qarzlarini kamaytirish yo‘llarini aniqlash, shuningdek, ularning ijobiy tomonlarini mamlakatimiz soliq tizimiga tatbiq etish zarurdir. Bu esa soliq undirish mexanizmini optimallashtirish va soliq qarzlarini kamaytirish uchun dolzarb masala hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda soliqni to‘lash, soliqni undirish va soliq qarzini kamaytirish jarayonlari xorijiy mamlakatlardagi amaliyotlardan olingan, masalan, R. Gilferding (Germaniya) va D.J. Millning (Fransiya) asarlarida aks etgan. Rus iqtisodchilari M. Romanovskiy, N. Sichev va T. Yutkina xorijiy mamlakatlardagi soliq tizimiga oid soliqni to‘lash va undirish usullarini, shuningdek, ularning natijalarini o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatganlar. O. Kalinka nazarida, soliq madaniyatini yaxshilashga qaratilgan soliq qonunlari normalarini takomillashtirish zarur, lekin bu jarayon murakkab va bir qancha qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, soliqni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini, xususan soliq ma’muriyati bilan bog‘liq qonunlarni va mahalliy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni muvofiqlashtirish lozim.

Ana shunday qarashlarning biriga ko‘ra qarzdor korxonalarini “nafas rostlashi” uchun ma’lum imkoniyatlar yaratilishi korxonaning qaytadan “oyoqqa

<sup>1</sup> Каримов И.А. Озодлик хавосидан тўйиб нафас олган халк ўз йўлидан хеч қачон қайтмайди. / И.А.Каримов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 28 б., [1] в. портр. – 5000 нусха. – ISBN 978-9943-28-772-3. (.pdf 11.2 mb)

turishini” ta'minlashga yordam beradi. Bunday tajriba ko‘proq soliq to‘lovchining manfaatlari uchun ishlaydigan rivojlangan mamlakatlarga tegishlidir. masalan, Angliyada qarzdor korxonaning qarzini undirib olish uchun sudga murojaat qilinganda, qarz ustiga yangi qarzlar qo‘yilmasligi uchun ular davlat boji to‘lovidan ozod etilgan. Shuningdek, Belorussiya va Qozog‘istonda soliq qarzini undirishni bir usuli sifatida undiruvni qarzdorning debitoriga qaratish soliq qonunchilik normasida mavjud.

Mamlakatimizda bu huquq, qarzdorlikni qarzdorning debitoriga qaratish “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 46-moddasiga (majburiy ijro etish choralar) asosan sud ijrochilariga berilgan. Bu holatda, soliq qarzi bo‘yicha ijro hujjatlari majburiy ijro byurolarida mavjud bo‘lishi kerak, bu esa qarzdorlikni undirilishida ancha vaqt talab qiladi. Respublikamizda, amaldagi qonunchilikda, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar munosabatlari o‘rtasidagi nizolar “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi 1998-yil 29-avgustdagি (670-I-son) O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan (19-modda ) sud tartibida ko‘rib chiqilishi ko‘zda tutilgan. latviya davlatida debitor qarzdorlikni undirish jarayoni 2 ta bosqichdan iborat bo‘lib, sudsaga va sud jarayonida undirish tartibi belgilangan. Qoidaga ko‘ra, sudsaga bo‘lgan jarayonda kutilgan natijaga erishilmaganda yoki qarzdorlik miqdori yuqori bo‘lganda kreditor sudga murojaat qiladi.

Da’vo qilayotgan sub’ekt tomonidan sudga oldindan davlat boji va pochta xarajati to‘lash talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasining “davlat boji to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-yanvardagi O‘RQ-600-son Qonuni 6-moddasiga asosan mulkiy xususiyatga ega da’vo arizalardan da’vo bahosining 2 foizi miqdorida, biroq BHmning 1 baravaridan kam bo‘limgan miqdorda davlat boji to‘lanishi lozim. Bugungi kunda, ayrim tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan davlat boji va pochta xarajatlarini to‘lash imkoniyati mavjud bo‘limganligi sababli o‘z vaqtida debitorlik qarzini undirish yuzasidan sudga murojaat qilaolmaganligi sababli soliq



qarzini ham o‘z vaqtida to‘lay olmayapdi. Shu o‘rinda, 2024-yilning 1-mart holatiga soliq qarzi mavjud korxonalarning debitorlarini 3.2-jadvalda tahlil qilib chiqildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Respublika bo‘yicha 8 235,7 mlrd.so‘m soliq qarzi mavjud 50,7 mingta korxonaning 69 843,2 mlrd.so‘mlik debitor qarzi mavjud (3.2-jadval). Bundan tashqari, 50,7 mingta korxona 5 674,0 mlrd.so‘m soliq qarzini to‘lash uchun sud orqali debitorlaridan undirishi uchun o‘rtacha soliq qarziga nisbatan 7,9 mlrd.so‘m davlat boji to‘lashiga to‘g‘ri keladi.

Soliq xizmati organlari tomonidan Soliq kodeksining 121-moddasiga asoslanib, soliq qarzini undirish maqsadida, soliq to‘lovchining bank hisob raqamlariga inkasso topshiriqlari berilishi mumkin. Bunday holatda soliq ma‘muriyatçiligin takomillashtirish maqsadida, Soliq organlari tomonidan g‘aznachilik va vakillik hisobvaraqlariga ham inkasso topshiriqnomalari qo‘yilishini amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda, Tahlil natijalariga ko‘ra, 2023-yilning 1-iyul holatiga 4 349 ta budget tashkilotlarining 109,5 mlrd. so‘m, 21 ta tijorat banklarining 121,1 mlrd. so‘mlik soliq qarzini undirish yuzasidan inkasso topshiriqnomalarini qo‘yish imkoniyati mavjud emas (yil boshiga nisbatan 87,5 mlrd. so‘mga oshgan). Bu holat, o‘z navbatida, Soliq kodeksining majburiylik,adolat va soliq tizimining yagona prinsiplari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq hisoblanadi.

Soliq kodeksining 125-moddasida yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsning soliq qarzini undirish tartibi belgilangan. Tadbirkorlik sub’ektlariga qulayliklar yaratish va ijro hujjalarni o‘z vaqtida bajarish maqsadida, ushbu 125-moddaga qo‘srimcha meyor kiritish zarur. Bu meyor, davlat ijrochisi soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega bo‘lgan jismoniy shaxsning mol-mulkini hisobga olgan holda undirish to‘g‘risidagi soliq organi qarori qabul qilingan kundan boshlab ikki oylik muddatda ijro harakatlarini amalga oshirishi va bu qarorda belgilangan talablarni bajarmog‘i lozimligini ko‘zda tutadi. Shuningdek, Soliq kodeksining 125-moddasida soliq organi jismoniy

shaxslarning soliq qarzini ushbu shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risida ariza bilan sudga murojaat qilish tartibi ham ko‘rsatilgan.

Jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirish bo‘yicha arizalarning 98 foizi sudlar tomonidan nizosiz ko‘rib chiqilayotganligini hisobga olib, qarzdorlarga qo‘srimcha xarajatlar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida Soliq kodeksining 125-moddasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish taklif etilmoqda. mazkur amaliyot yuridik shaxsdan va yakka tartibdagi tadbirkordan soliq qarzini undirish tartibiga joriy etilgan va bugungi kunda samarali ishlab kelmoqda. Bundan tashqari, ushbu normaning joriy etilishi natijasida vaqt va byudjet xarajatlari kamayishi, shuningdek, jismoniy shaxsning ortiqcha xarajatlari ham qisqaradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qarzdorligini undirish ma’murchiligidagi har bir yo‘nalishda soliqlarni majburiy undirish uchun nazorat ishlarini, ya’ni mas’ul bo‘lgan tashkilot, idora va ayniqsa xizmat ko‘rsatayotgan bank muassasalari javobgarligini kuchaytirish barobarida undirishga doir xarajatlarni kamaytirish maqsadida barcha bosqichlarni elektron shaklga o’tkazish, mavjudlarini yanada takomillashtirish lozim.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

Davlat soliq qo’mitasi ma’lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).